

HARBIY AVIATSIYA KADRLARINI TAYYORLASH JARAYONIDAGI DASTLABKI ISLOHOTLAR TARIXI

Махманова Хосият Нормўминовна

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda harbiy aviatsiya kadrlarini tayyorlash haqida so‘z boradi. Muallif arxiv ma’lumotlar hamda yozma manbalarga tayanib, mavjud ilmiy-tarixiy adabiyotlar asosida muammoga aniqliklar kiritgan. O‘zbekistonda harbiy-aviatsiya kadrlarni tayyorlash bo‘yicha mavjud tarix hamda o‘ziga xos yondashuvlar va nazariyalarni qiyosiy tahlil etgan.

Kalit so‘zlar: Bilim yurti, kursant, serjantlar, harbiy kadrlar, ofitserlar, mutahassislar, taktik-qo‘mondonlik, o‘quv-taktik bilimlar.

Annotatsiya.

Mustaqillik yillarda Harbiy Havo hujumidan mudofaa va Harbiy Havo Kuchlarining shakllanishi, harbiy aviatsiya ta’lim tizimini yaratilishi mutaxassis kadrlarni tayyorlash oliy harbiy ta’limni isloh qilish bilan uyg‘unlashib ketdi.

Mustaqillik yillari O‘zbekistonda yuqori malakali harbiy ofitserlarni tayyorlash - Qurolli Kuchlar islohotining eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston ham boshqa mustaqil davlatlar singari o‘z xalqining tinch va osoyishta hayotini, xavfsizligini ta’minlash borasida o‘z yo‘lini belgiladi. O‘zbekiston mustaqilligi yillarda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar mamlakat milliy davlatchiligining siyosiy, harbiy va g‘oyaviy yo‘nalishini tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Mustaqillik g‘oyalarini amalga oshirish birinchi navbatda davlat mustaqilligini himoya qilishni talab etar edi. Bu o‘z navbatida mustaqillik himoyachisi bo‘lgan Qurolli Kuchlarga asos solinishini tarixiy zaruriyatga aylantirdi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining shakllanishi jarayoni yangicha yondashuvlar asosida yoritish borasida ilmiy izlanishlar va xarbiy ta’lim rivojlanishi bosqichlarini ochib berilmagan va o‘rganilmagan. O‘zbekistonda milliy armiyani zamon talabiga mos ravishda shakllantirishning tarixiy zaruriyati, o‘ziga xos hususiyatlarini

o‘rganish, mustaqillik yillarda bu sohada amalga oshirilgan islohotlar hamda uning natijalari, qo‘lga kiritilgan yutuqlar va muammolarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 13-iyuldagи farmoniga muvofiq mamlakat hududida joylashgan Harbiy-havo kuchlari, aloqa va artilleriya qo‘shinlari, bo‘linmalari va tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi.

Ҳарбий хаво кучлари энг юқори маневрланган қўшин турига кирган. Мазкур қўшин хаводан туриб душманнинг авиация, қуриқликдаги қўшинларини яксон, қилишга, давлат ва ҳарбий бошқарув тизими, фронторти ва ҳарбий иқтисодий кудратга молик объектларни, транспорт коммуникациялари, қуриқлик қўшинларини авиацион жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, хаво десантчиларини ташлаш, қўшин ва моддий воситаларни ҳаво орқали ташиш, ҳаво разведкасини юритиш каби вазифаларни бажариш учун мўлжалланган¹.

1992 йил 27-30 май кунлари Россияда илмий амалий анжуман ўтказилган бўлиб, унда умумий коллектив Куролли Кучларни тузиш, ҳарбий доктринани тузишида, қўшин турларини такомиллаштириш масаласи кўтарилган. Анжуманда авиация маршали Е.И.Шапошников, собиқ иттифоқ давлатлари ўз Куролли Кучларини ҳарбий техника ва ҳарбий илмий салоҳиятини кучайтиришда, ҳамда минтақада коллектив хавфсизликни таъминлашда Россия армиясининг ёрдамисиз амалга ошира олмаслигини айтган эди. Чунки, танк ишлаб чиқарадиган 14 та саноат корхонасининг 12 та ва ҳарбий илмий кадрлар тайёрлайдиган ўкув муассасаларининг 80% Россия ҳудудида жойлашганлиги таъкидлаган².

Respublika hududida joylashgan qo‘shilma va qismlar O‘zbekiston tasarrufiga o‘tgan davrda esa milliy harbiylar 30 foizdan oshmas edi³. Aviatsiya sohasida ahvol

¹ ЎзР МВМА.45-фонд. 67400 – рўйхат. 5 -иш. 3 – варақ.

² Шапошников Е.П.. Об интеграции Вооруженных Сил Государств Содружества.//Военная мысль. 1992 йил. Июль. Б.105.

³ O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi; mas’ul muharrir : D.X. Ziyayeva. T.: Sharq. 2012. – B.241.

bundanda og‘ir holatda edi. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy havo kuchlari qo‘mondoni o‘rribosari polkovnik T.M. Yusupovning 1992-yilda bergen hisoboti yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi: “Ayni paytda respublikamizdagi har 100 nafar harbiy havo kuchlari uchuvchisidan 99 nafari milliy tarkibga mansub emas. Biz bu nomutanosiblikni bartaraf etishimiz kerak, chunki ma’lum vaqtidan so‘ng, bu 99 uchuvchi o‘z uylariga jo‘nab ketadi, samolyot va vertolyotlar esa shu yerda qoladi. Shuning uchun har bir viloyatda desantchilar va uchuvchilarni tayyorlaydigan aeroklub tashkil etish zarur”⁴. Mazkur muammo 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab, O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida, shu jumladan, Harbiy-havo kuchlarida o‘zbekistonlik zabitlarni zahiraga chaqirish, mustaqillikka erishgach mamlakat harbiy bilim yurtlari hamda xorijiy oliy harbiy ta’lim muassasalarida yangi kadrlarni yetishtirish orqali ofitserlar tarkibida milliy kadrlar salmog‘i orttirish orqali hal etilganligini qayd etish mumkin.

Sohada mutaxassislarning yetishmasligiga aeroklublarning yopilishi va malakali mutaxassislarning past maoshga ishlashni xohlamasligi va uchuvchi-o‘rgatuvchilarni tayyorlaydigan markazning yo‘qligi sabab bo‘lgan. Shunga qaramasdan, SSSR parchalanishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlar orasida aviatsiya tashkilotlari faqat Rossiya va O‘zbekistonda ishlab turganligi respublika hukumati mazkur sohani saqlab qolish va rivojlantirish borasida ko‘plab amaliy ishlar olib borganligini ko‘rsatadi. 1991-yil oxirida mamlakatda mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar”⁵ tashkilotining to‘rtta uchish klubi mavjud edi. Bular: Andijon, Namangan, Samarqand va Toshkent/Aranchi aeroklublaridir. Tashkilot ixtiyorida An-2, Yak-18T va Yak-52 uchoqlari mavjud bo‘lib, uchish bo‘yicha amaliyat darslari aynan ushbu samolyotlardan foydalangan holda amalga oshirilgan.

⁴ O‘zMA, M-50-fond, 1-jamg‘arma, 1-yig‘majild, 6-varaq.

*Mudofaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti 1991-yil 23-noyabrda bo‘lib o‘tgan Armiya, aviatsiya va flotga ko‘maklashuvchi butunitifoq ko‘ngillilar jamiyati (DOSAAF)ning VIII-Qurultoyi qarori bilan tashkil etilgan. Tashkilotning 1996-yil 23-avgustdagি qurultoyida qabul qilingan Nizomda tashkilotning asosiy maqsadi – respublika mudofaasiga ko‘maklashish, mehnatkashlarni, yoshlarni mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlashdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarda yuzaga kelgan kadrlar masalasini hal etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Harbiy aviatsiya sohasida kadrlar yetishmovchiliginin bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi abiturientlarni Rossiya federatsiyasi Harbiy havo kuchlari harbiy bilim yurtlariga yuborish kun tartibidagi muhim masalaga aylangan edi. Chet el harbiy bilim yurtlarida tahsil olish uchun kursantlar va ofitserlarni tanlov asosida saralash yo‘lga qo‘yildi. Nomzodlarni yig‘ish, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, kirish imtihonlarini o‘tkazish va komissiyalar tarkibi belgilangandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi abiturientlarini Rossiyadagi parvoz maktablariga yuborishni tashkil etish uchun 1992 yil 15 avgustda Toshkent oliv o‘quv yurti negizida O‘zbekiston Respublikasi harbiy komisariyatlari va maktablaridan barcha nomzodlarni yig‘ish ularni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish hamda fuqarolik yoshlari uchun kirish imtihonlarini o‘tkazish va qabul qilish mandat komissiyalari tarkibi tuziladi. 1992 yil 17-18 avgust kunlari 31 tibbiy parvoz ekspertizasi bo‘limi negizida tibbiy komissiya o‘tkazildi. 1992 yil 15 avgustda kursantlarni bilim yurtlariga yuborishga tayyorgarlik⁶ yo‘lga quyildi.

O‘zbekiston va Qиргизистон respublikalari o‘rtasida harbiy kadrlarni o‘zaro tayyorlash bo‘yicha erishilgan kelishuvga muvofiq, o‘zbekistonlik nomzodlarni Bishkek shahridagi harbiy aviatsiya-texnika bilim yurtida o‘qitish uchun qabul qilish tartibi belgilandi. Shuningdek, nomzodlarni tayyorlash, qasamyodga keltirish va Bishkekka jo‘natish uchun attestatsiya komissiyasining qarori bilan kursantlikka qabul qilingan kursantlar Harbiy havo kuchlari qo‘mondonining buyrug‘i bilan 1992 yil 6 noyabrda Harbiy qasamyod qabul qildi. Kursantlar Harbiy Havo Kuchlari qo‘mondonligi tomonidan 1992 yil 9 noyabrda kuni AN-12 samolyotida Bishkekka yuborildi⁷.

Kadrlar masalasini hal etish maqsadida mamlakatda malakali harbiy aviatsiya kadrlarni imkon qadar tayyorlashni yo‘lga quyish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 1993 yil 11 noyabrdagi buyrug‘i asosida Toshkent oliv

⁶ ЎзР МВ МА 45-фонд. 67399-рўйхат. 2-иши. 113-варак.

⁷ ЎзР МВ МА 45-фонд. 67399-рўйхат2-иши. 263-варак.

umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtida harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha kafedra tashkil etish, uni professor-o'qituvchilar tarkibi, o'quv dasturlari va binolar bilan ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilandi. Vazirlikning buyrug'iiga asosan asosan Toshkent oliy umumqo'shin qumondonlik bilim yurtida harbiy aiatsiya mutaxassislarini tayyorlash bo'limini (kafedrasini) tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Ushbu qarorning ijrosi natijasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy havo kuchlari uchun harbiy aviatorlarni tayyorlash maqsadida 1993 yil 1 dekabrga qadar Toshkent umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtida harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash uchun kafedra tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining Jangovor, chaqiruvgacha tayyorgarlik va oliy o'quv yurtlari boshqarmasi boshlig'i 1993 yil 1 dekabrgacha Toshkent Oliy qo'mondonlik umumqo'shin bilim yurtining harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha yangi tashkil etilgan kafedrani professor-o'qituvchilar tarkibi va harbiy-texnika bilan ta'minladi⁸.

Harbiy-havo kuchlari qo'shinlarining tarkibida o'zbekistonlik bo'limgan harbiy uchuvchilarning o'z yurtlariga ketishi sabab ularni o'rnini to'ldiruvchi yosh harbiy aviatorlarni tayyorlash maqsadida bu borada o'zaro kelishuv shartnomalari tuzildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtaida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma⁹, hamda 1994 yil 2 martda O'zbekiston va Rossiya o'rtaida imzolangan harbiy sohadagi o'zaro hamkorlik haqidagi shartnoma¹⁰ asosida Krasnodar, Sizran, Balashov, Tambov Oliy Aviatsiya bilim yurtlariga, Yuriy Gagarin nomli Oliy harbiy akademiyaga, Havo xujumidan mudofaa harbiy universitetiga, Oliy aviatsiya texnikasi universitetiga o'zbekistonlik kursantlar va ofitser kadrlar bilim olish va malaka oshirish uchun yuborildilar.

⁸ ЎзР МВ МА 45-фонд. 67399-рўйхат 7-иши. 91-варақ.

⁹ O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtaida davlatlararo unosabatlarnig asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomasi. O'ZР MDA M 37-fond. 1-ro'yxat. 111-ish. 10-varaq..

¹⁰ Батырбеков Т. Гарант мира и стабильности. // Ватанпарвар. 14.01.1995г

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining Rossiya Federatsiyasi harbiy ta’lim muassasalariga yuborilishi to‘g‘risida Мудофаа вазирининг буйруғина асосан Жиззах ҳарбий билим юрти курсантларидан 1) Krasnodar harbiy aviatsiya instituti (Krasnodar shahri): 3 nafar kursant. Jizzax oliv harbiy aviatsiya bilim yurtidan podpolkovnik Xamraev Baxtiyor Amanovich hamrohligida.

2) Syzran oliv harbiy aviatsiya instituti (Syzran shahri): 2 nafar kursant. Jizzax oliv harbiy aviatsiya bilim yurti qurol-yarog‘ bo‘limi boshlig‘i mayor Bekmurzaev Muhammad Abduvalievich hamrohligida.

3) Tambov oliv harbiy aviatsiya instituti (Tambov shahri): 2 nafar kursant. Uzoq Sharq harbiy okrugidan ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik bo‘yicha ofitser Abdullaev Zafarjon Sayfiddinovich раҳбарлигига юборилдилар¹¹.

2005-yilda esa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining oliv o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish rejasи quyidagi tartibda amalga oshirildi¹²:

Nomi	Shahri	Soni	Muddati	Ma’lumoti
Havo kuchlari akademiyasi	Moskva	2	2 yil	Ofitser
Harbiy aviatsiya texnikasi universiteti	Moskva	1	2 yil	Ofitser
Harbiy-havo kuchlaridan mudofaa universiteti	Tver	1	2 yil	Ofitser

¹¹ O‘zR MV MA 45-fond. 71161-ro‘yxat 7-ish. 197-varaq.

¹² O‘zR MV MA 45-fond. 86329-ro‘yxat 1-ish. 18-varaq.

	Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining Harbiy-havo mudofaasi harbiy universiteti	Smolen sk	1	3 oy	Ofitser
	Krasnadar harbiy aviatsiya institute	Krasna dar	4	5 yil	Kursant
	Tambov harbiy aviatsiya muhandislik instituti	Tambo v	1	5 yil	Kursant
	Voronej harbiy aviatsiya muhandislik institute	Voronej	2	5 yil	Kursant
	Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining Harbiy-havo mudofaasi harbiy universiteti	Smolen sk	2	5 yil	Kursant

A.Y. Filonenkoning maqolasida Rossiya va O‘zbekiston hamkorlik aloqalari natijasida 2013-yil 250 dan ortiq o‘zbek zabitlari Rossiya harbiy va ixtisoslashtirilgan o‘quv yurtlarida tayyorlangani hamda 2014-yilda 500 dan ortiq o‘zbekistonlik harbiy xizmatchilar Rossiyada malaka oshirganligi qayd etilgan¹³. Yuborilgan harbiy xizmatchilarning katta qismi Harbiy-havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa sohasi bo‘yicha ta’lim olishgan.

Bu sohadagi islohotlarni davom ettirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 12 fevraldagи Farmoniga asosan Toshkent elektrotexnika va aloqa institutining maxsus fakulteti¹⁴ tashkil etildi va beshta yo‘nalish buyicha

¹³ Филоненко А.Е. Военное и военно-техническое сотрудничество России со странами Центральной Азии на современном этапе. Геополитика и патриотическое воспитание №16. 2016.

¹⁴ Тошкент Ахборот технологиялари Университетининг махсус факультети 1993-2003. Қисқача маълумотлар. Т.: 2003. Б-3.

ta’lim berish yo‘lga quyildi. Fakultet 7 mutaxasisliklar bo‘yicha zabitlarni tayyorlaydi. Fakultet tarkibida 8 ta maxsus kafedra mavjud bo‘lib kafedralar zamonaviy telekomunikatsiya va radiotexnika vositalari bilan jihozlanib, kompyuter sinflari tashkil etildi hamda zamonaviy multimediali vositalar bilan ta’minlandi. Maxsus fakultet birinchi va ikkinchi kurs talabalari TETU ning barcha boshqa fakultet talabalari bilan birqalikda o‘rnatilgan tartib bo‘yicha ta’lim oladilar. Uchinchi kursdan boshlab, talabalar harbiy qasamiyod qabul qiladilar va davlat tomonidan bepul ovqat, yashash joyi, maxsus kiyim bilan ta’minlanadilar. Fakultet bitiruvchilariga “leytenant” harbiy unvoni beriladi, injener diplomi taqdim etiladi va Mudofaa vazirining buyrug‘i bilan xizmatni davom ettirish uchun harbiy qismlarga yo‘naltiriladilar. Fakultet qoshida zabit kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazi ham faoliyat yuritadi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-avgustdagи 386-95-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari havo hujumidan mudofaa qo‘sishnalarilariga mansub zenit va radiotexnika qo‘sishnari uchun ofitser kadrlar tayyorlash to‘g‘risida” qaroriga asosan shu yilning 1-sentabrdan boshlab Toshkent elektrotexnika aloqa instituti maxsus fakulteti negizida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy-havo kuchlarining zenit-raketa va radiotexnika qo‘sishnari uchun ofitserlar tayyorlashni tashkil etish belgilandi. 1999-2000 o‘quv yilida maxsus fakultetning birinchi kursiga abituriyentlar qabul soni 25 nafar etib belgilandi¹⁵.

Harbiy ta’limni rivojlantirish, aloqa bo‘yicha harbiy mutaxassislarni saralash va tayyorlashning keng ko‘lamli tizimini yo‘lga quyish uchun Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining 2019 yil 17 yanvardagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa sohasida ofitser kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakulteti Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti yetib qayta tashkil

¹⁵ O‘zR MV MA 45-fond. 86392-ro‘yxat 1-ish. 18-varaq.

etildi¹⁶. Institut Toshkent viloyati, Zangiota tumanida yangi zamonaviy harbiy shaharchada joylashtirildi. Harbiy institut Mudofaa vazirligining davlat oliv harbiy ta’lim muassasasi bo‘lib, u 6 ta yo‘nalish bo‘yicha taktik bo‘g‘indagi ofitser kadrlarni 2 yillik tayyorlashni amalga oshiradi. Bular: Aloqa qo‘shinlari taktik qumondon - muhandisligi;

Maxsus aloqa va davlat sirlarini muhofaza qilish taktik qo‘mondon-muhandisligi;

Axborot tizimlari va texnologiyalari taktik qo‘mondon-muhandisligi;

Radioelektron razvedka va kurash taktik qo‘mondon-muhandisligi;

Havo hujumidan mudofaa radoitexnika qo‘shinlari taktik qo‘mondon-muhandisligi;

Havo hujumidan mudofaa zenith-raketa qo‘shinlari taktik qo‘mondon-muhandisligi¹⁷.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari HHM va HHK qo‘mondonligini ofitser kadrlarga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 1993 yil 10 avgustdagи buyrug‘i bilan maxsus harbiy o‘rta ma’lumotli ofitserlarni, praporshchiklarni tayyorlash tizimini tartibga solish amaliyotga joriy etildi. Bu borada 1994 yil 4 mayda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy Havo Kuchlari qo‘mondonligi praporshchiklar kurslari to‘g‘risidagi nizomni amalga kiritdi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy Havo Kuchlari bo‘linmalari va mutaxassislarida harakatlantiruvchi ofitserlarning bo‘sh bo‘lgan lavozimlarini tayyorlash va kadrlar bilan ta’minalash darajasini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi havo kuchlari uchun praporshiklarni tayyorlashning 6 oylik dastur asosida o‘quv kurslari tashkil etish belgilandi¹⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini zamonaviy texnikalar bilan qurollangan harbiy havo kuchlarini rivojlantirish uchun aviatsiya texnikalarini a’lo darajada boshqaradigan va ularga sifatli xizmat ko‘rsata oladigan yuqori malakali

¹⁶ Бахтиёр Раҳимов. Алоқа мутахассисларини тайёрловчи таянч ҳарбий муассасаси. Ўзбекистон Армияси.2020, январ №4 [36] 24-bet.

¹⁷ Yangi harbiy institut. O‘zbekiston Armiyasi.2020, yanvar №1 [21] 11-bet.

¹⁸ O‘zR MV MA 45-fond. 67399-ro‘yxat 10-ish. 249-varaq.

mutaxassislarni qisqa muddatlarda tayyorlash va malakali harbiy aviatsiya kadrlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida, Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994-yil 20-iyundagi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 1994-yil 9-iyuldaggi buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Harbiy-Havo kuchlari qo'mondonining 1994 yil 1 avgustdagagi farmoyishiga asosan tashkil etildi. Bilim yurtida vertolyot aviatsiyasining ko'mondonlik-taktik mutaxassisligi bo'yicha uchuvchi-muhandislar, jangovar boshqaruvin ofitserlari, shturmanlar, samolyot va dvigatellar bo'yicha muhandis-texniklar, aviatsiya qurollari bo'yicha muhandis-texniklar, aviatsiya jihozlari bo'yicha muhandis-texniklar, radioelektronika jihozlari bo'yicha muhandis texniklar, ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga quyildi. 1997 yilning oktabr oyida bilim yurtini uchuvchilik va muhandis - texnik mutaxassisliklari bo'yicha 97 nafar yosh ofitser birinchi qaldirg'ochlar sifatida bitirdilar.¹⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoevning 2018-yil 14-may qaroriga asosan Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti deb qayta nomlandi va bilim yurti Qarshi shahriga ko'chirilishi belgilab berildi. Mazkur bilim yurtini joylashtirish uchun Qarshi shahridagi sobiq Serjantlar tayyorlash matabining binosi tanlandi. Prezident qaroriga asosan, Mudofaa vazirligi hamda qator vazirliklarning hamkorlikda olib borgan ishlari natijasida zamon talablariga to'liq javob beradigan harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashga mos dargoh Qarshi shahridagi sobiq Serjantlar tayyorlash matabining binosi qayta ta'mirlanib zamon talablari darajasida bunyod etildi. Mudofaa vazirining 2019-yil 16-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurtini Qarshi shahriga ko'chirib o'tkazish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan Institut Qarshi shahrida o'z faoliyatini boshladi.

¹⁹ Давронов А.Н. Ўзбекистонда ҳарбий-билим юртлар тарихи. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi –5/2-2022.145-бет.

Oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining aynan Qarshi shahrida tashkil etilishi, avvalo, kursantlarga mamlakatimizdagi eng yirik harbiy aerodromlardan biri bo‘lgan Xonobod aerodromida harbiy havo kemalarini boshqarish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish, bevosita o‘quv poligonlarida ishtirok etish imkonini berdi.

2023-yil 24-fevral kuni bilim yurtiga davlat rahbarining tashrifi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ehtiyojlari uchun aviatsiya mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash, qayta tayyorlash va aviatsiya ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati va faoliyati samardorligini oshirish uchun bilim yurtini Institutga aylantirish taklifini bergen edi. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-yanvardagi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti “O‘zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti” deb qayta nomlandi. Institut aviatsiya sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta’minlash, Qurolli Kuchlar uchun malakali uchuvchi va muhandis kadrlarni maqsadli tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha yetakchi oliy harbiy ta’lim muassasasiga aylandi.

Ta’kidlash joizki, mazkur o‘quv maskani nafaqat O‘zbekistonda balki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi yagona oliy harbiy ta’lim muassasasiga aylandi.

Mazkur sohada O‘zbekiston o‘zining harbiy uchish maktabiga ega ekanligi mamlakatga harbiy aviatsiya sohasida mustaqil ravishda kadrlar tayyorlash imkoniyatini berdi. Bu esa mudofaa tizimini yanada mustahkamlashga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy havo hujumidan mudofaa va Harbiy havo kuchlarida ofitser kadrlar taqchilligi davrida zahiradagi ofitserlarni tayyorlashga ham alohida ahamiyat qaratiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 10 iyuldagagi qaroriga muvofiq “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tizimida hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy havo kuchlarining safarbarlik rezervini yaratish maqsadida Toshkent davlat aviatsiya institutida aviatsiya mutaxassisliklari bo‘yicha zaxiradagi ofitserlarni

tayyorlash uchun 1998 yil sentabrgacha harbiy kafedra tashkil etildi, hamda kadrlar va o‘quv-moddiy baza bilan ta’minlandi.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Давронов А.Н.Ўзбекистонда ҳарбий-билим юртлар тарихи. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi –5/2-2022.145-бет.
- 2.Yangi harbiy institut. O‘zbekiston Armiyasi.2020, yanvar №1 [21] 11-bet.
- 3.Бахтиёр Раҳимов. Алоқа мутахассисларини тайёрловчи таянч ҳарбий муассаса. Ўзбекистон Армияси.2020, январ №4 [36] 24-bet.
- 4.Филоненко А.Е. Военное и военно-техническое сотрудничество России со странами Центральной Азии на современном этапе. Геополитика и патриотическое воспитание №16. 2016.
- 5.Батырбеков Т. Гарант мира и стабильности. // Ватанпарвар. 14.01.1995г